XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-avgust VII-10-61-2-42-K/25 Buxoro shahar

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil birinchi yarim yillik ijrosi hamda daromad va xarajatlarga tegishli tartibda kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-28 va 126-147-148-moddalariga asosan Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil birinchi yarim yillik daromadlari 144,1 mln. so'mni tashkil etdi, mahalliy budjetdan 141,1 mln. so'm miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan 58,04 mlrd. so'mi yoki 41,1 foizi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirildi. Buxoro shahar mahalliy budjetining parametrlariga 2025-yil birinchi yarim yillik daromad va xarajatlarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisobotlari axborot uchun qabul qilinsin.

Bundan tashqari, respublika budjetidan maqsadli tadbirlarga qo'shimcha ajratilgan mablag'lar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar hamda viloyat mahalliy budjeti parametrlari doirasida kiritilgan o'zgartirishlar hisobiga belgilangan tadbirlar o'z vaqtida moliyalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-28 va 126-147-148-moddalariga asosan shahar mahalliy budjetining 2025-yil birinchi yarim yillik ijrosi hamda daromad va xarajatlarga tegishli tartibda kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisobotlari muhokama qilib, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1 Buxoro shahar hokimining birinchi o'rinbosari - iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i X.Yaxyoyevning Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil birinchi yarim yillik budjet ijrosi hamda daromad va xarajatlarga tegishli tartibda kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisoboti 1-2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Buxoro shahar hokimining birinchi o'rinbosari - iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i X.Yaxyoyevga:

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida shahar mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlarni kiritish choralarini ko'rsin.

3. Buxoro shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda shahar davlat soliq inspeksiyasi (A.G’afurov)ga:

shahar hokimligi bilan birgalikda daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. Bunda, prognoz rejani har bir soliq turi kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ma`murov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi Q.I.Tursunov

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 16-avgustdagi
VII-10-61-2-42-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-yarim yillik xarajatlari ijrosi to'g'risida ma'lumot

ming.so'm

№	Ko'rsatkichlar nomi	Buxoro shahar	
		Aniqlangan reja	Bajarilishi
	Buxoro shahar xarajatlar - jami	**145 195 159**	**141 095 573**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**61 094 234**	**58 044 586**
	shu jumladan:		
1.1	**Maorif**	**55 327 405**	**51 997 863**
	- maktabgacha ta'lim	19 365 547	18 127 172
	- umumiy ta'lim	35 961 858	33 870 691
1.2	**Sog'liqni saqlash jami**	**0**	**602 640**
	Sog'liqni saqlash	0	602 640
1.3	**Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari**	**5 453 707**	**5 192 511**
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 217 288	1 031 083
	- sport	4 236 419	4 161 428
1.4	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	77 700	57 750
1.5	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	235 422	193 822
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**35 481 138**	**30 762 553**
	shu jumladan:		
2.1	Obodonlashtirish	35 481 138	30 762 553
3	**DAVLAT BOSHQARUV IDORALARI**	**17 013 897**	**16 477 584**
4.	**FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**2 507 835**	**1 910 620**
5.	**ZAXIRA JAMG'ARMASI**	**1 570 107**	**1 175 119**
6.	**FUQAROLAR TASHABBUSI JAMG'ARMASI MABLAG'LARI**	**26 664 141**	**26 664 141**
7.	**BOSHQA XARAJATLAR**	**863 806**	**6 060 971**

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil 6-oylik daromadlari ijrosi to'g'risida ma'lumot

ming.so'm

№	Daromad turlari	Buxoro shahri			
		Tas.reja	Aniq.reja	O‘zg.	Ijro
	JAMI	**108 188 730**	**137 084 780**	**-28 896 050**	**144 142 995**
1	Foyda solig‘i	0	0	0	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	30 778 000	29 385 000	1 393 000	30 646 783
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0	10 364 000	-10 364 000	11 073 259
-	Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i	0	10 364 000	-10 364 000	11 073 259
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7 140 000	7 274 000	-134 000	7 260 797
5	Aksiz solig‘i jami	0	0	0	0
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0	0	0	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 251 000	16 529 000	-3 278 000	13 795 472
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	25 474 000	34 326 000	-8 852 000	34 491 247
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 541 730	22 607 780	-3 066 050	17 724 948
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 552 000	14 548 000	-4 996 000	14 588 388
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	227 000	269 000	-42 000	8 499
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0	723 000	629 000	1 704 251
-	qishloq xo‘jalagi tashkilotlari (40%)	0	0	0	0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0	0	0	17 845
13	Davlat boji	0	0	0	0

14	Yig‘imlar	0	0	0	0
15	Jarimalar	0	0	0	3 877 613
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	873 000	1 059 000	-186 000	971 484
17	Boshqalar	0	0	0	7 982 409

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 16-avgustdagi
VII-10-61-2-42-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil birinchi yarim yillik xarajatlari rejasining ijrosidan kelib chiqib, birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida belgilangan tadbirlarni hamda joriy xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish maqsadida shahar mahalliy budjetlari xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlar

mln.so‘mda

T/R	Mablag‘ oluvchi nomi	tasdiqlangan reja	Ishki o‘zgarish	Erkin qoldiq hisobiga	Yuqori budjetdan kiritilgan	Aniqlangan
Jami		**122 832,1**	**0,0**	**4 378,1**	**17 985,0**	**145 195,2**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	26 675,0	0,0	0,0	9 472,0	36 147,0
2	Madaniyat bo‘limi	19 521,1	150,0	0,0	831,6	20 502,7
3	Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	3 709,9	312,0	0,0	214,5	4 236,4
4	Obodonlashtirish boshqarmasi	0,0	233,6	0,0	0,0	233,6
5	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	994,7	16,5	0,0	-0,0	1 011,1
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 147,1	11,5	0,0	107,1	1 265,7
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 559,8	214,8	284,3	528,9	2 587,9
8	Buxoro shahar hokimligi	63 410,5	-1 038,1	4 093,7	6 684,4	73 150,6
9	Xalq qabulxonasi	47,1	0,0	0,0	-7,9	39,1
10	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	164,9	0,0	0,0	-59,9	105,0
11	Yoshlar ishlari agentligi Buxoro shahar bo‘limi	3 871,3	99,8	0,0	275,8	4 246,9

12	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	1 730,7	0,0	0,0	-61,5	1 669,2

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil birinchi yarim yillik daromadlari rejasining ijrosidan kelib chiqib, prognoz rejani to'liq ijrosini ta'minlash maqsadida kiritiladigan o'zgartirishlar

ming.so‘m

Mahalliy budjet nomi	2025-yil 1-yarim yillik				shu jumladan, choraklar davomida kiritiladigan o'zgartirishlar *				
	Aniqlangan reja	Ijro	Farqi		2025-yil jami	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
			(+,-)	%					
Buxoro shahar mahalliy budjeti	137 084 780	144 142 995	7 058 215	105,1%	0	12 914 850	15 981 200	0,0	-28 896 050